



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'TILGAN MAVZUNI SO'RASH  
TEXNOLOGIYALARI

Abilova Aynura Kewlimjay qizi  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari, ularning dars jarayoniga ta'sirlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda o'tilgan mavzuni so'rash bo'yicha "Omadli aylana", "Qor bo'ron" metodi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, pedagogik texnologiya, pedagogik yangilik, metod, innovatsion metod, zamonaviy ta'lim texnologiyalari

TECHNOLOGIES FOR REQUESTING HOMEWORK IN ELEMENTARY  
GRADES

Abilova Aynura Kewlimjay qizi  
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

**Abstract:** This article provides information on the effective aspects of using pedagogical technologies in primary school classes and their impact on the teaching process. Also, the "Lucky Circle" and "Snowstorm" method of asking about the subject taught in primary classes was shown.

**Keywords:** creativity, pedagogical technology, pedagogical innovation, method, innovative method, modern educational technologies.

Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda.  
SH.Mirziyoyev

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biri bu- hozirgi zamon talablariga javob beradigan, yangicha fikr yuritadigan avlodlarni tarbiyalash bo'ldi. Vatanga sodiq, o'z shaxsiy fikriga ega, har qanday vaziyatda oqilona fikr yuritadigan, izlanuvchan, yangiliklarga intiluvchi avlodlarni tarbiyalash bugungi kunda ham zamon talabi bo'lib turibdi. Mana shunday zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaqtda ta'lim tizimiga yangi tushuncha "kreativlik" kirib keldi.

Kreativlik bu- shaxsning individual xususiyati bo'lib, har xil narsa va pedagogic qurollardan o'zining shaxsiy tushunchalaridan kelib chiqqan holda qo'llashi va rivojlandirishi hisoblanadi.

Hurmatli prezidentimiz SH.Mirziyoyev aytganiday "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi". Haqiqatdan ham, o'qituvchi faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi bu- o'quv jarayonining samarali va

sifatli tashkil etilishi hisoblanadi. Buning uchun esa o'qituvchi o'zidagi pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va oqilona foydalanishi lozim.

Pedagogik yangilik bu- pedagogik faoliyatda oldin ta'lim jarayonida qo'llanilmagan va ta'lim va tarbiyaning nazarya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantirish, o'zgarishlar kiritish vositasidir.

Texnologiya so'zi yunoncha bo'lib, texne – mahorat, san'at; logos –ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'llanadigan usul va metodlar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviylikini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anglatadi.

Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Bu talim jarayoniga innovasion yondashuv demakdir. Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini ta'lim jarayoniga har bir o'quvchi shaxsi, ruxiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishlari kuchaytiradi va berilgan bilimlarni amaliyotda erkin foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda mana shunday pedagogik yangiliklar yaratish, ularni ta'lim tizimida qo'llash muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda o'tilgan mavzularni mustahkamlash bo'yicha "Krassvord", "Skanvord", "Testlar", "Ven diagrammalari" v "BBB" texnologiyalari qo'llamoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar darslarida o'tilgan mavzuni so'rash, uyga vazifalarni so'rash bo'yicha birnechta metodlar ko'rsatib o'tiladi.

**"Omadli aylana" metodi.**

Ushbu metod boshlang'ich sinf o'quvchilaridan uyga vazifalarni so'raganda o'z samarasini ko'rsatadi. Nomining antiqaligi va tashqi ko'rinishi, rang barangligi o'quvchilarni o'ziga tortadi va ularda qiziqish uyg'otadi. Bu metoddan barcha fan turlarida, nafaqat boshlang'ich sinflarda balki barcha katta sinflarda ham uyga vazifalarni so'rash paytida qo'llash mumkin. Sinf xonasiga " aylana" qo'yiladi va unga sinfdagi barcha o'quvchilar ismlari yozib qo'yilgan bo'ladi. So'ng o'qituvchi "aylana"ni aylantiradi va strelka qaysi ismni ko'rsatsa shu o'quvchidan uyga vazifa so'raladi.

**Bu metodning boshqa metodlardan afzalliklari.**

Uyga vazifalarni so'rashning bu usuli orqali o'quvchilarda dars tayyorlashga bo'lgan qiziqishning ortishi kuzatiladi. Chunki, agar biz o'quvchilar baxosiga yoki ularning o'z xohishlariga qarab uyga vazifalarni so'raydigan bo'lsak bu ularda zerikishni paydo qiladi va o'quvchilar psixikasida shunday oy paydo bo'ladi: "Men kecha uyga vazifamni tayyorladim va baho oldim. Uyga vazifalarni so'rashning bu usuli orqali o'quvchilarda dars tayyorlashga bo'lgan qiziqishning ortishi kuzatiladi. Chunki, agar biz o'quvchilar baxosiga yoki ularning o'z xohishlariga qarab uyga vazifalarni so'raydigan bo'lsak bu ularda zerikishni paydo qiladi va o'quvchilar psixikasida shunday oy paydo bo'ladi: "Men kecha uyga vazifamni

tayyorladim va baho oldim. Endi ustoz mendan uyga vazifani so'ramaydi, chunki boshqa bahosi kam o'quvchilardan so'raydi. Shuning uchun bugun men uyga vazifa tayyorlamasam ham bo'ladi". Mana shunday oy-hayollar paydo bo'lmasligi uchun bu metod yordam beradi. Bunda har bir o'quvchi har kuni darsga katta qiziqish bilan tayyorlanib kelishini kuzatishimiz mumkin.

#### "Omadli aylana" metodi



#### "Qor bo'ron" metodi.

Ushbu metod boshlang'ich sinf o'quvchilaridan o'tilgan mavzularni so'rashda yordam beradi. Bunda dastlab o'qituvchi oq qog'o'zni dumloq shaklga keltiradi va uni bitta o'quvchiga otadi. O'quvchilar ushbu qog'o'zni qorli koptokcha deb faraz qilishadi. Qorli koptokcha qaysi o'quvchiga otilgan bo'lsa shu o'quvchi koptokni ushlab oladi. So'ng o'qituvchi ushbu bolaga o'tilgan mavzu bo'yicha savol beradi va o'quvchi javobini topgach o'zi xohlagan bolaga koptokni otadi. Bitta o'quvchi koptokni ushlagach otgan o'quvchi unga savol beradi. O'yin shu tariqa davom

etadi. Ushbu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, chaqqonlikga, o'tilgan mavzuni qunt bilan o'rganishga undaydi. Metodning yana bir qulay taraflaridan biri, boshlang'ich sinflarda bolalar juda ham o'yinlarni yaxshi ko'radigan, o'zlari endi ko'cha o'yinlaridan voz kechib maktab ostonasiga qadam qo'ygan, o'yinqaroq bo'lishadi va shuning uchun ularga dars paytida o'yin o'ynatishlari juda yoqadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu "Qor bo'ron" metodini sevib o'ynashadi.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish oshib boraveradi. Shuning uchun ham, biz hozirgi ilm-fan shiddat bilan rivojlangan zamonda yashar ekanmiz, zamon bilan teng qadam tashlashimiz lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.
2. Mamarajabova Z.N. Tálim jarayonida pedagogik texnologiyalar. -T.,2016

#### REFERENCES:

1. Azizxo'jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T., 2002.
2. Mamarajabova Z.N. Tálim jarayonida pedagogik texnologiyalar. -T.,2016